




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

7	Nasiba SIDIKOVA, Sevinch G‘AFFOROVA, “Malika ayyor” dostoni variantlarida hasanxon obrazi tahlili	400
8	Nargiza UMURZAQOVA, Tohir Malikning “Odamiylik mulki” asarida Imom G‘azzoliy hikmatlarining o‘rni	405
9	Nurjahon RAHMONBERDIYEVA, Muhammad Alining “Avliyoning bashorati” dostonida tarix haqiqati va badiiyati	408
10	Mohinabonu RAHMATOVA, Nurota dostonchilik maktabining shakllanishi va rivojlanishi	412
11	Sanobar TURSUNOVA, Murod Mansurning “Judolik diyori” romanida diniy motivlar	414
12	Lobar AVAZOVA, Komiljon Imomov- o‘zbek xalq ertaklari tadqiqotchisi	417
13	Ozoda RAJABBOYEVA, “Xuastuanift” asarida qadimgi mifologik dunyoqarashning aks ettirilishi	421

5-SHO‘BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR

1.	Matluba JABBOROVA, O‘zbek folkloridagi ayollar obrazining mumtoz adabiyotdagi transformatsiyasi	425
2.	G‘ayratbek XOLBUTAYEV, Komik folklor janrlari tizimi: genezis, poetika va semantik transformatsiya	428
3.	Abdukamol ABDUJALILOV, Sehrli ertaklarda motiv va obraz munosabati	433
4.	Ma‘mura RAMATOVA, Shimoliy Xorazmdagi ayrim tarixiy godonimlarini qiyosiy tahlil qilish	437
5.	Gulruh RAVSHANOVA, Muhammad Yusufning “Qora quyosh” dostonida poetik psixologizm	441
6.	Feruza TURDIMOVA, Muzayyana Alaviya adabiy merosida xalq og‘zaki ijodi va badiiyat uyg‘unligi	445
7.	Saodat JO‘RAYEVA, Bolalar folklori janrlarining badiiy va tarbiyaviy xususiyatlari	448
8.	Aziza SAYDULLAYEVA, O‘zbek-turk xalq sehrli ertaklarida soch obrazining mifopoetik talqini	451
9.	Huriniso XAYRULLAYEVA, “Qisasi Rabg‘uziy”da mavjud she‘riy parchalar badiiyatida folklor elementlarining ifodalanishi	454
10.	Sadoqat KAMOLOVA, “Masxara” obrazining badiiy-tarixiy funksiyasi (xalq og‘zaki ijodidan to bugungi kungacha bo‘lgan davr miqyosida)	456
11.	Shohzoda TURSUNBOYEVA, Mifologik va fantastik tafakkurda “barhayotlik” muammosining namoyon bo‘lishi	459
12.	Dilafruz MAHKAMOVA, “Bilga xoqon” romanida tarixiy xotira va turkiy qahramon xarakteri	463
13.	Nilufar DEHQONOVA, “Devonu lug‘otit-turk”dagi mifologik obrazlar va ularning folkloriy transformatsiyasi	468

O'ZBEK-TURK XALQ SEHRLI ERTAKLARIDA SOCH OBRAZINING MIFOPOETIK TALQINI

MYTHOPOETIC INTERPRETATION OF THE HAIR IMAGE IN UZBEK AND TURKISH FOLK FAIRY TALES

Aziza SAYDULLAYEVA,

ToshDO'TAU tayanch doktoranti

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/ICXO3145

Annotation. *This article comparatively examines the mythopoetic interpretation of the hair motif in Uzbek and Turkish folk fairy tales. The study analyzes the semantic and symbolic meanings of hair in connection with ancient animistic, totemistic, and demonological beliefs, as well as its functional role in fairy-tale poetics. Special attention is given to motifs such as long-haired fairy maidens, golden-haired heroes, magical feathers, manes, and hair strands, through which hair appears as a symbol of beauty, sacredness, magical power, protection, and spiritual connection.*

Key words: *hair motif, mythopoetics, Uzbek folklore, Turkish folklore, fairy tale, animism, totemism, poetic symbol.*

Soch turkiy xalqlar madaniyatida nafaqat estetik unsur, balki mifologik, ijtimoiy va semantik ma'nolarni mujassamlashtirgan muhim madaniy kod sifatida shakllangan. Qadimgi turkiy tafakkurda insonning tashqi qiyofasi uning ichki ruhiyati, ijtimoiy mavqei va kosmik tartib bilan bog'liq deb qaralganligi sababli sochga alohida ramziy mazmun yuklangan. Shu jihatdan qaralganda, soch turkiy xalqlarda biologik hodisa emas, balki etnomadaniy identifikatsiyaning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Qadimgi turkiy jamiyatlarda sochning uzunligi, rangi, o'rinish shakli va soni insonning jinsiy, ijtimoiy hamda marosimiy maqomini ifodalagan. Erkaklar va ayollar soch turmagi orqali jamiyatdagi o'rini namoyon qilganlar. Xususan, uzun soch ayrim davrlarda hokimiyat, jasorat va nasliy martaba belgisi sifatida qabul qilingan. Shu bilan birga, sochning kesilishi yoki qisqartirilishi motam, ruhiy iztirob yoki ijtimoiy maqomning o'zgarishini bildirgan. Bu holat qadimgi turkiy xalqlarning inson va ruh o'rtasidagi uzviy bog'liqlik haqidagi mifologik qarashlari bilan aloqador bo'lgan. Turkiy xalqlarda ayol sochi ayniqsa muqaddas va semantik jihatdan serqatlam obraz sifatida shakllangan. O'zbek va turk an'analarida qizlarning soch o'rishi nafaqat estetik vazifani bajargan, balki marosimiy va himoyaviy xarakterga ham ega bo'lgan. Sochni ma'lum sonlarda – o'n, qirq yoki qirq bir tolaga o'rish odati qadimgi numerologik tasavvurlar bilan bog'liqdir. Turkiy mifopoetik tafakkurda qirq soni kosmik mukammallik, himoya va baraka timsoli sanalgan. Shu sababli qirq o'rimli soch ayolning nafaqat go'zalligini, balki uning nasliy davomiylik va hayotiy quvvat bilan bog'liqligini ham ifodalagan.

O'zbek xalq ertaklari va turk folklorida ayolning uzun sochi ko'pincha go'zallik va sehrli kuch ramzi sifatida tasvirlanadi. Masalan, pari, malika yoki yalmog'iz obrazlari uzun va g'ayritabiiy soch bilan ifodalanadi. Bu esa sochning mifologik tafakkurdagi "chegaraviy" tabiatini ko'rsatadi. Tartibli o'rilingan soch madaniyat va ijtimoiy tartibni anglatadi, yoyilgan yoki tartibsiz soch kaos, sehr va yovvoyi kuch bilan bog'langan. Shu bois motam marosimlarida ayollarning soch yoyishi yoki kesishi ruhiy iztirobning tashqi ifodasi sifatida talqin qilingan.

Turkiy xalqlarda soch ranglariga ham alohida ma'no yuklangan. Qora soch hayotiylik va yoshlik ramzi bo'lsa, oqargan soch donishmandlik va tajriba belgisi sifatida baholangan. Ayrim mifologik tasavvurlarda sariq yoki olovrang soch ilohiylik va g'ayritabiiy kuch bilan bog'langan. Bu holat ayniqsa epik qahramonlar tasvirida yaqqol ko'rinadi. Soch bilan bog'liq qarashlarning muhim jihatlaridan biri uning marosimiy funksiyasidir [Shahbaz, 2020:1502]. Qadimgi turkiy jamiyatlarda bola ilk bor sochi olinganda maxsus marosimlar o'tkazilgan. Bu jarayon bolaning yangi ijtimoiy bosqichga o'tishini bildirgan. Shuningdek, jangchilarning soch turmagi ham harbiy

identifikatsiya vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Ba’zi urug‘ va qabilalarda soch shakli etnik mansublik belgisi vazifasini bajargan.

O‘zbek va turk xalq og‘zaki ijodida soch obrazi poetik detal sifatida ham muhim o‘rin tutadi. Doston va ertaklarda qahramonning go‘zalligi ko‘pincha soch tasviri orqali beriladi. Ayniqsa, “qop-qora soch”, “beligacha tushgan soch”, “oltin soch” kabi tasvirlar ideal go‘zallikning poetik formulalariga aylangan. Shu jihatdan soch obrazi folklor poetikasida estetik idealni ifodalovchi muhim badiiy unsur hisoblanadi.

Tahlilga tortayotganimiz turk xalq sehrli ertaklaridan biri “A‘g‘layan Narla G‘ülen Elma” [Demir, 2021:68] (“Yig‘lagan anor va kulgan olma”) ertagidagi sehrli tuk (pat/tüy) motivi o‘zbek va turk xalq sehrli ertaklarida keng uchraydigan mifopoetik unsurlardan biridir. Tuk ertak syujetida oddiy detal emas, balki qahramon bilan g‘ayritabiiy yordamchi o‘rtasidagi mistik aloqani ta’minlovchi poetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ertakda qora ot qizga: “Üzerimden üç tane tüy kopar, başın sıkıştığında bu tüyleri birbirine sürt, hemen yardımına gelirim”, - deydi. Bu yerda tuk – yordam chaqirish vositasi vazifasini bajaradi. Qahramon qiyin vaziyatga tushganida tuklarni bir-biriga surtadi va ot darhol paydo bo‘ladi. Demak, tuk: masofa va makon chegarasini yo‘qotuvchi, qahramon bilan homiy kuch o‘rtasidagi aloqani saqlovchi, sehrli qudratni o‘zida mujassam etuvchi mifologik predmetdir. Mazkur motivning ildizlari qadimgi totemistik qarashlarga borib taqaladi. Ibtidoiy inson hayvonning junida, tukida yoki yolida uning ruhi va sehrli kuchi saqlanadi deb ishongan. Shu sababli ertaklarda hayvonning bir parchasi uning o‘rnini bosuvchi magik timsolga aylanadi. Tukni yoqish yoki surtish orqali yordamchini chaqirish motivi ko‘plab turkiy ertaklarda uchraydi. Bu ertakda qora ot oddiy hayvon emas, balki homiy ruh timsolidir. U qahramonni: uzoq mamlakatga olib boradi, qurol topib beradi, xavfdan qutqaradi, devlar makoniga eltadi. Shunday qilib, ot – g‘ayritabiiy yordamchi, tuk esa uning qudratini ifodalovchi sehrli mediator vazifasini bajaradi. Tuk motivining yana bir muhim jihati – uning narrativ funksiyasidir. Syujet davomida qahramon bir necha bor mushkul vaziyatga tushadi va aynan tuk yordamida voqealar rivoji davom etadi. Agar tuk bo‘lmaganida qahramon devni yenga olmas edi, sehrli oynani topa olmas edi, devlarning toshini olib kelolmas edi, yig‘laydigan anor va kuladigan olma daraxtiga erisholmas edi. Demak, tuk syujetni harakatga keltiruvchi poetik mexanizm hisoblanadi. Ertakdagi tuk motivi qadimgi animistik tasavvurlar bilan ham bog‘liq. Animizmga ko‘ra, tabiatdagi har bir mavjudot ruhga ega. Otning tuki uning ruhiy qudratini o‘zida saqlaydi. Shu sababli tuk orqali ot bilan mistik aloqa saqlanib qoladi. Bundan tashqari, tuk motivida shomonistik qarashlarning izlari ham seziladi. Turkiy mifologiyada ot ko‘pincha: olamlar o‘rtasida yuruvchi, ruhlarni olib o‘tuvchi, ilohiy yordamchi sifatida talqin qilinadi. Tuk esa ana shu metafizik kuchning moddiy belgisi hisoblanadi.

Demak, mazkur ertakda sehrli tuk:

- a) g‘ayritabiiy yordamchini chaqirish vositasi;
- b) qahramonni himoya qiluvchi magik predmet;
- c) syujetni rivojlantiruvchi poetik detal;
- d) totemistik va animistik qarashlarning folklordagi izi;
- e) homiylik va qutqaruv ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek xalq sehrli ertaklaridan biri “Bulbuligo‘yo” [Afzalov, 1985:31] ertagida soch obrazi mifopoetik mazmun kasb etgan muhim poetik timsollardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ertakda soch oddiy tashqi detal emas, balki g‘ayritabiiy qudrat, homiylik va ruhiy aloqa ramzi sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, maymun pari tomonidan shahzodaga berilgan bir tola kokil syujetning muhim poetik vositasiga aylanadi. Pari shahzodaga: “Qachon boshingga mushkul ish tushsa, shu sochning uchini kuydirsang, men shu yerda hozir bo‘laman”, deydi. Ushbu epizodda soch qahramon bilan g‘ayritabiiy yordamchi o‘rtasidagi mistik bog‘lanishni saqlovchi magik predmet vazifasini bajaradi. Sochni kuydirish orqali maymun pari darhol paydo bo‘lishi qadimgi “kontakt sehrli” bilan bog‘liq mifologik qarashlarning folklordagi ifodasidir. J. Frezer ta’kidlaganidek, inson tanasidan ajralgan soch yoki tirnoq egasi bilan metafizik aloqani saqlab qoladi. Ertakdagi kokil ham aynan ana shu ruhiy bog‘lanish timsolidir.

Soch motivining syujetdagi funksiyasi shahzoda akalari tomonidan xiyonatga uchragan sahnada yanada yaqqol ko‘rinadi. Ikki akasi uni aldab, qilich ustiga tushirib oyoqlaridan judo qiladi. Shahzoda o‘lim yoqasida qolganida: “maymun parining bergan tutatqisi yodiga tushib, uchini kuydiribdi”, shundan so‘ng: “ko‘zini yumib-ochguncha to‘rt burchini to‘rt pari ko‘targan, tepasida maymun pari o‘tirgan oltin taxt paydo bo‘libdi”. Mazkur sahnada soch himoya va qutqaruv vositasi sifatida faol poetik vazifa bajaradi. Agar sehrli kokil bo‘lmaganida, shahzoda halok bo‘lar edi. Demak, soch ertak kompozitsiyasida qahramonni o‘limdan saqlab qoluvchi narrativ mexanizm vazifasini ham bajaradi. Ertakdagi soch obrazi qadimgi animistik qarashlar bilan ham bog‘liqdir. Animistik tasavvurlarga ko‘ra, insonning ruhi va hayotiy qudrati uning sochida mujassam bo‘ladi. Shu sababli soch egasining ruhiy energiyasini saqlovchi unsur sifatida talqin qilingan. Maymun pari kokilining sehrli kuchga egaligi ham aynan shu mifologik tasavvurlar bilan izohlanadi. Sochning kuydirilishi esa ruhiy qudratni uyg‘otish marosimini eslatadi. Soch obrazi ertakda ayolning ilohiy va sehrli tabiatini ochishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maymun pari dastlab oddiy maymun qiyofasida namoyon bo‘lsa-da, keyinchalik: “bir yumalab, bir malika bo‘libdiki, olamda bunday chiroyli qiz onadan tug‘ilgan emas” deb tasvirlanadi. Uning kokili esa oddiy ayol sochi emas, balki pari olamiga mansub ilohiy qudrat ramzidir. Shu jihatdan soch ayol obrazining sirli va metafizik mohiyatini ifodalovchi poetik detalga aylanadi.

Shuningdek, ertakdagi soch motivi qayta tirilish va yangilanish semantikasi bilan ham bog‘langan. Shahzoda maymun pari yordamida “Bahrul hayot” suviga solinib davolanadi va avvalgi holatidan ham go‘zalroq qiyofaga ega bo‘ladi. Bu motiv qadimgi mifologiyadagi o‘lim va qayta tug‘ilish arxetipining folklordagi ko‘rinishidir. Soch esa ana shu qayta tiklanish jarayonini boshlovchi magik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Demak, “Bulbuligo‘yo” ertagida soch obrazi:

- a) g‘ayritabiiy aloqa vositasi;
- b) homiylik ramzi;
- c) himoya va qutqaruv predmeti;
- d) ruhiy qudrat timsoli;
- e) qayta tirilish va yangilanish belgisi

sifatida talqin qilinadi. Shu jihatdan ertakdagi kokil motivi o‘zbek xalq sehrli ertaklaridagi eng qadimiy animistik va mifopoetik qatlamlardan birini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va turk xalq sehrli ertaklarida soch obrazi qadimgi mifologik tafakkur, animistik va totemistik qarashlarning badiiy ifodasi sifatida shakllangan murakkab mifopoetik timsoldir. Ertaklarda soch nafaqat estetik go‘zallik belgisi, balki sehrli qudrat, himoya, ruhiy aloqa va ilohiylik ramzi sifatida talqin qilinadi. Uzun sochli pari qizlar, oltin kokil, sehrli yel, pat va taroq motivlari orqali xalqning qadimgi diniy tasavvurlari hamda estetik ideallari namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, soch obrazining poetik funksiyalari qahramonni himoya qilish, xavfdan qutqarish, mo‘jiza yaratish va syujet harakatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek va turk folkloridagi bu motivlar turkiy xalqlarning umumiy mifologik ildizlari hamda madaniy mushtarakligini ko‘rsatadi. Demak, soch obrazi xalq ertaklari poetikasida qadimiy e‘tiqodlar, marosimiy qarashlar va badiiy tafakkurni birlashtiruvchi muhim semantik hamda poetik unsur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Şahbaz, M. İslamiyet öncesi türklerde Saç kültürü. Journal of History school, 46, 1490-1507.
2. Олтин бешик. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик / Нашрга тайёрловчилар: М.Афзалов, К.Имомов. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1985. – 256 б.
3. Demir, N. (2021). *Anadolu Türk halk masalları* (Cilt 1). Ankara: Anadolu yayınları. 486 S.
4. Frezer, Dj. Zolotaya vetv. - M.: Politizdat, 1983. – S.151.